

SHOYIM BO'TAYEV IJODIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI
(“Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasi misolida)

Sobirjonova Irodaxon Sobirjonovna

NavDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi

1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shoyim Bo‘tayev qissalarida obrazlar olami, personajlar turli ruhiy holatlari, badiiy obraz tushunchasi, Xarakter, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, insoniy fazilatlar, shuningdek, va yozuvchining asosiy g‘oyaviy-estetik niyatini tashuvchi shaxslar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Obraz, Xarakter, personaj, tipiklashtirish, individuallashtirish, ruhiy holat.*

O‘zbek adabiyotida qissaning o‘ziga xosligini belgilovchi omillardan biri va asosiysi badiiyluk bo‘lib, uning qay daraja hamda qay yo‘sinda voqe bo‘lishi ijodkorning yuksak mahorati, iste’dodi, saviyasining uyg‘unligidir. Shoyim Bo‘tayev qissalarida ijodkor pafosi bilan tasvirlangan voqealar, personajlar pafosi birikib, o‘zaro katta ta’sir qudratiga ega bo‘lgan. Adabiyotshunos Abdulla Ulug‘ov “Kishilarning turmush tarzi, ularning intilishi, dunyoqarashi, qiziqishi, sevgi-muhabbati, qayg‘u-quvonchlari faqat badiiy asardagina o‘zining aniq ifodasini topadi”, degan edilar. Badiiy asarda insonlarning o‘y-fikrlari, yashash tarzi, ruhiy holati kabilar badiiy obrazlar orqali ochib berilishi barchamizga ma’lum[6.138].

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz tushunchasi ko‘plab adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Dilmurod Qur'onov, Izzat Sulton, Abdulla Ulug‘ov kabilar shular jumlasidandir.

Adabiyotshunos Dilmurod Qur'onovning badiiy obraz masalasiga oid izlanishlarini alohida e’tirof etish lozim. Olim “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksidir”, deya ta’kidlaydi[5.90].

Adabiyotshunos olim Izzat Sulton badiiy obraz tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: “Badiiy asarda ozmi-ko‘pmi tafsilot bilan tasvir etilgan personaj obraz yoki xarakter deb ataladi. Xarakter (obraz—insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviri. Xarakter kishilarning ma’lum toifasiga xos xususiyatlarni ma’lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko‘rinadi”[4.103].

“Adabiy qahramon deganda, birinchi navbatda, badiiy asarlardagi inson obrazi nazarda tutiladi. “Adabiy qahramon” esa hamisha adabiyotshunoslikda muhim muammolardan biri sanaladi. Badiiy asarlarda kishilar obrazi hayot voqealari jarayonida, xayol-tasavvurdagi olam ichida ko‘rsatiladi. Ular fe’l-atvori, xatti-harakatiga ko‘ra bir-biridan ajralib turadi.



She'riy, nasriy va drama turiga mansub asarlardagi kishilar obrazi o'ziga xos xususiyatlari bilan e'tiborni tortadi"[7.4], deya e'tirof etadi Abdulla Ulug'ov.

80-yillarning o'rtalaridan adabiyotimizning qutlug' dargohiga kirib kelgan ijodkorlardan biri Shoyim Bo'tayevdir. Iste'dodli adib o'zining asarlarida insonning turfa xil olamini badiiy talqin etar ekan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, insoniy fazilatlar bilan bir qatorda inson va tabiat, inson va jamiyat, olam va borliqni kashf etishda uning turli xarakter qirralarini talqin etadi. Shuning uchun adibning asarlarida shaxs fojiasi, insoniyatning ruhiy iztiroblari, tabiat va koinot misolida ochib beriladi. Shoyim Bo'tayev asarlarida tasvirlangan shaxslar, voqea-hodisalar hayotiyliigi, falsafiy va ramziy ma'noga esa ekanligi bilan ajralib turadi.

Ushbu maqolamizda adibning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasi asosida obraz yaratish mahorati haqida so'z yuritamiz. Shoyim Bo'tayev qissalarida qahramonlar turli vaziyatlarda har xil yo'llar bilan hayot sinovlarida toblanadilar, turli ziddiyatlar og'ushida yashaydilar. Shu bois, ijodkorning qissalarida pesonajlar turli ruhiy holatlar—pushaymonlik, g'am va iztirob orqali ochiladi. Ayniqsa, "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida insonning ruhiy ziddiyatlari, ichki kechinmalari va ijtimoiy-axloqiy qiyofasi turli obrazlar orqali ochib berilgan.

Ushbu qissada nazoratchi, uning ayoli va Toshmurod kabi asosiy personajlar ishtirok etadilar. "Badiiy asar voqealarining boshidan oxirigacha faol qatnashgan va yozuvchining asosiy g'oyaviy-estetik niyatini tashuvchi shaxslar asosiy personajlar hisoblanadi. Ular asarning bosh qahramoni deb ataladi" [10].

Amaki, Sunnat o'g'ri, oqsoqol, ko'ksoqollar kabi obrazlar esa asardagi yordamchi personajlardir. "Barcha voqealarda to'la qatnashmasada, yozuvchining g'oyaviy niyatini to'laroq ochishga xizmat qiladigan faol obrazlar yordamchi personajlardir. Ushbu personajlar bosh qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy holatini to'la-to'kis ochib berish uchun xizmat qiladilar" [10].

"Asarning makrostrukturasida yanada kamroq qatnashadigan shaxslar epizodik personajlar bo'lib qolaveradi. Alivoy traktorchi, qo'ni-qo'shnilar, go'rkov, boshliq Musayev, Jumanazar kabi obrazlar buning yaqqol misolidir"[10].

Asar retrospektiv syujetga asoslangan bo'lib, voqealar bosqichma-bosqich roviy ya'ni hikoyachi tomonidan bayon qilib beriladi.

"Sho'rodan qolgan odamlar" qissasining markaziy fonida turuvchi ya'ni asosiy qahramoni bo'lgan nazoratchi obrazi insoniylikning eng oliy belgisi bo'lgan mehr, shafqat kabi tuyg'ulardan yiroq, haqiqiy o'zbek erkaklariga xos g'ururli, qaysar (*"Nazoratchi-o'sha eskidan qaysar, yakkafe'l odam!"*) [2.60], bundan tashqari har qanday vaziyatda ham hukumatga sidqidildan xizmat qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Ushbu personajning har bir xatti-harakati orqali o'quvchi uning qanday shaxs ekanligini yaqqol ko'z oldiga keltira oladi. O'g'lining birgina o'ylamay *"Umr bo'yi poliz qo'riqchisiga o'xshab bitta tayoqni ushlab o'tasizmi, ota?"* [2.1] degan gapi uchun o'g'li bilan gaplashmay qo'ydi. O'g'li hatto, o'g'rilikda ayblanganda ham bir og'iz uni tarafini olmaydi, aksincha menga gapirgan gapi.



uchun shu ahvolga tushdi, deya xursand bo'ladi. O'g'lini qamoqdan saqlab qolish imkoni bo'la turib u bunday qilmaydi. "Hukumat oqni oqqa, qorani qoraga ajratadi", deya faxrlanib qo'yadi. Ushbu o'rinda uning vazifasi oldidagi burchi va otalik burchi o'zaro konflikt munosabatni hosil qiladi. Nazoratchi o'g'lidani ranjigani uchun bunday sharoitda hukumatga sodiq xizmat qilishni afzal ko'radi. Nazoratchi go'yoki tananing bir bo'lagini bemalol kesib tashlash bilan barobar ishni qiladi. Ayni shu vaziyatda uning o'z vazifasini otalik burchidan ham yuqori qo'yuvchi, o'z ishiga mukkasidan ketgan shaxs ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Nazoratchining ismi MELS ayonki, to'rt dohiy (K.Marks, F.Engels, I.Lenin, I.Stalin) nomlarining bosh harflaridan tuzilgan ya'ni qisqartma ot. "Mels" obrazini biz motiv obraz deya atasak ham bo'ladi. Sababi ushbu qahramon Shoyim Bo'tayevning nafaqat qissalarida, balki ba'zi hikoyalarida ham uchraydi. Masalan, "Yolg'iz bosh" hikoyasi. *"Melsning familiyasi g'alatiligiga ajablanmang. Aslida, Jo'ra Temirboyev bo'lishi kerak. Otasining qattol Mamayusufga aka bo'lganidan g'azablanibmi, yoinki qandaydir temirboyligidan orlanibmi, o'sha yillarda arza qilib familiyasini o'zgartirib olgan"* [1.119].

Motiv (motiv-obraz) shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg'unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir [5.111].

Ushbu qahramonning ismidan ham ko'rinib turibdiki, nazoratchi hukumat tartiblarini bajarishni har narsadan ko'ra ustun qo'yadi. Chunki u o'tmishning yoki bugunning odami emas, u sho'rodan qolgan odam ya'ni sho'ro hukumati davrida yashagan, uning ruhida tarbiyalangan odamdir. *"Sho'roning haqiqiy odami shu kishi, malades! Olmaydilar ham, bermaydilar ham!"* [2.77].

Asardagi asosiy personajlardan yana biri bu nazoratchining ayoli, ya'ni Toshmurodning onasi. Asarning eng asosiy qurboni desak, bizningcha mubolag'a bo'lmaydi. Chunki barcha ziddiyatlarni badalini asar so'ngida sho'rlik ona o'z joni bilan to'laydi.

"Nazoratchining xotini qirq besh - ellik yoshlardagi ayol, sochlari oppoq oqarib ketgan, yuzini qalin ajinlar kavlab tashlagan, qo'llari kosovdek, ko'rinishidan yetmish-saksonlarni qoralagan kampirga mengzagulik edi...Engnidan hamish bir xil-rangi o'ngib, tusi uchib ketgan chit ko'ylak tushmas, oyog'idagi tosh kalish-u boshidagi ro'molgacha ana shu ko'ylakka mos edi"[2.15]. Ayol portretidan ham ko'rinib turibdiki, hayot zarbalari, nohaqliklari uni vaqtdan ancha oldin qaritib qo'ygan.

Mushtipargina ona o'g'lining bu ahvoli shunchaki tasodif ekanligiga, yaqin orada qaytib kelishiga ishonadi. Suprada qolgan eng oxirgi undan qotirma qilib yarmini eriga qoldirib, yarmini esa o'g'liga berib yuborishni niyat qiladi. Qotirmani pishirib bo'lgach katta yo'lga chiqib berib yuborish uchun yo'ldan odam o'tishini kutadi. Bu sahna kitobxonga Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasida Jannat xolaning qochoq o'g'li Tursunboyga ovqat tashish voqeasini eslatishi tabiiy. Faqat onalar farzandiga hech qachon xiyonat qilmaydi. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" asarida aytganidek, "Onalarning biz tushunmaydigan, bizning o'lchovimizga sig'maydigan bir olami bor" [3.21].



Asarning ikkinchi qismi “Ota va bola” deya nomlanib, bu qismda qamoqxona nazoratchisi Mels va o‘g‘li Toshmurod o‘rtasidagi konfliktning barham topishi, nazoratchi qalbida mehr tuyg‘usining tug‘ilishi haqida so‘z yuritiladi.

Ushbu qism qamoqxona portreti bilan boshlanadi. *“Shaharcha chetidagi, tashlandiq bir yerda joylashgan bu qamoqxona rejimining qattiqligi, nazoratchilarning qo‘rs-qo‘polligi bilan dong taratgan, eng ashaddiy jinoyatchilar uning nomini eshitgandayoq titroqqa tushishadi...”* [2.65].

Toshmurod mana shu qamoqxonada saqlanadi. Nazoratchi shu qamoqxonada 30 yildan buyon ishlaydi. Shu sababli boshlig‘i unga xohlagan vaqtida o‘g‘lini ko‘rishga ruxsat bergan bo‘lsa-da, bir marta ham bunday qilmaydi. *“—O‘g‘ilchani ko‘rasizmi?-boshliq nazoratchiga marhamat ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. —Nazoratchi boshliqning so‘zini qaytarishga odatlanmagan edi, uning hozirgi so‘rog‘iga nima deb javob qaytarishni bilmaganday, mobodo yo‘q desa, boshliqning buyrug‘ini rad etganday bo‘lib ko‘rinishidan qo‘rqqanday, ikkilanib yelkalari shalvirab tushdi”* [2.70].

Nazoratchi navbatchiligi tugab uyiga borganda ayoli o‘lim to‘shagida yotgan edi. Ayoliga qarab turgan kampirning qistovi tufayli u Toshmurodni turmadan olib kelib, onasiga ko‘rsatishga majbur bo‘ldi. Boshliqdan ruxsat so‘rash vaqtida ham bir bora o‘g‘lim deb gapirmaydi, *“No‘mer to‘qson oltinchining onasi o‘lyapdi”*[2.94]. U ayni shu vaqtda ham o‘g‘liga mahbus sifatida munosabatda bo‘ladi. Shuningdek, ayolining janoza marosimida ham rasmiy kiyimini bir daqiqa bo‘lsa-da yechmaydi. Bu manzara nazoratchini sho‘ro mafkurasida tarbiyalangan, uning qaramiga aylanib qolgan manqurt odam ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Ayolining ustiga qora tuproq tortilgachgina nazoratchining qalb ko‘zi ochila boshladi. *“U, yo‘q, ketma, degisi keldi. Ko‘zlaridan ikki tomchi yosh dumalab tushdi. Ikki tomchi yosh...”* [2.118]. Shu choq nazoratchining butun vujudini qoplab olgan “zang” ikki tomchi ko‘z yosh bilan yuvilib ketdi.

“Ota, yuring endi-ii...-Hozir-ir, o‘g‘lim...”[2.120] Toshmurod tomonidan berilgan psixologik turtki nazoratchi Melsni chaqmoq urgan misoli seskantirib yuboradi.

“Psixologik turtki — bu ong osti darajasida kechadigan o‘zgarishlar majmuasini faollashtiruvchi hodisadir. Bosh qahramonning psixologik uyg‘onishi, ichki qaror qabul qilish mexanizmi ko‘pincha tashqi ta’sirlar evaziga sodir bo‘ladi”[9].

Shu o‘rinda adabiyotshunos Hotam Umurovning “Odamlar daryodek gap: hammasining suvi bir xil, hamma joyda o‘sha suv, lekin daryo goh keng bo‘ladi, goh tor, goh tez, goh sekin oqadi, suvi goh tiniq bo‘ladi, goh loyqa, goh iliq bo‘ladi. Odamlar ham shunday. Har bir odamda insoniy hissiyotlarning kurtagi bo‘ladi. Odam shu hissiyotlarning goh birini, goh boshqasini namoyon qiladi, ba’zan o‘sha odamning o‘zi butunlay o‘zgarib ketadi. Ba’zi odamlarda shu o‘zgarishlar juda keskin namoyon bo‘ladi...” [8.64] degan fikrlarini yodga olsak maqsadga muvofiq bo‘lsa kerak deb o‘ylaymiz. Melsning ham insoniy hissiyotlarida tub burilish sodir bo‘ldi. Endi u uchun burch, vazifa, mas’uliyat yarim chaqalik ahamiyati yo‘q bo‘lib qoldi.



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ushbu qissada murakkab hayotning turfa qirralari bilan bir qatorda, davrning o'ziga xos ijtimoiy muammolari talqinini ham ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, asarda insonning nechog'lik murakkab mavjudot ekanligi, uning qalb tubidagi tuyg'ulari bir kun bo'y ko'rsatishi juda chiroyli ochib berilgan. Adib ushbu asarida o'ziga xos uslub yordamida boshqa asarlarda uchramaydigan takrorlanmas obrazlar yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bo'tayev Sh. Shamol o'yini. Qissa va hikoyalar-T.: "Yozuvchi",1995.
2. Bo'tayev Sh. "Sho'rodan qolgan odamlar"-T.: "Ijod-press",2019.
3. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari, qissa-T.: "Qaldirg'och" nashriyoti, 2018.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi-T.: "O'qituvchi", 2005.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari-T.: "Navoiy universiteti", 2018.
6. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
7. Ulug'ov A. Adabiy qahramon obrazi.
8. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi-T.: "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti",2004.
9. https://inlibrary.uz/index.php/scienceshine/article/view/99037#google_vignette
10. <https://share.google/8iCmZ2C8D138tm5sl>

